



O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA SUD TIZIMI VA BU SOHADA O'TKAZILGAN ISLOHATLAR

Ismoiljonova Mubinaxon Umidjon qizi

Andijon Davlat Universiteti

Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

Mo'minov Xusanboy Madaminovich

Ilmiy rahbar dots.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10526171>

ARTICLE INFO

Received: 11th January 2024

Accepted: 17th January 2024

Online: 18th January 2024

KEY WORDS

Oliy sud, sud qarori, xalq sudi, sud organlari, jamiyat, demokratiya, iqtisodiyot, kodeks, kon'yunktura, yurisdiksiya, korpus.

ABSTRACT

Mustaqillik sharofati bilan o'zbek xalqi o'z taqdirini o'zi hal qilish qilish, kelajagini o'zi belgilash huquqiga ega bo'ldi. Istiqlolning dastlabki yillarida O'zbekiston o'zining mustaqil, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lini belgilab oldi. Demokratik tamoyillar asosida O'zbekistonda amalga oshirilgan tub islohatlar natijasida davlat hokimiyatining turli tuzilmalarida o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, siyosiy sohada milliy davlat hokimiyat organlarini barpo etish va shakllantirish borasida katta yutuqlarga erishildi. Quyidagi maqolada mustaqillik yillarida sud tizimi va bu sohada o'tkazilgan islohatlar haqida so'z boradi.

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning kafolati – O'zbekiston Konstitutsiyasidir. Xususan, respublikada davlat hokimiyati tashkil etishning muhim demokratik tamoyillari Konstitutsiyada qayd qilingan bo'lib, unda hokimiyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlaridan iborat deb ko'rsatilgan. Uch hokimiyatdan har biri faoliyatda mustaqil bo'lib, ayni vaqtda bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishini quyidagicha ta'riflaydi: "Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish, jamiyatning siyosiy tizimini tubdan yaxshilash, respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab qo'yish, adolatli va insonparvar qonunchilikni vujudga keltirish lozim bo'ladi"¹.

O'zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyat – Oliy Majlis, ijro etuvchi hokimiyat – Vazirlar Mahkamasi, sud hokimiyati – Konstitutsiyaviy Sud, O'zbekiston Respublikasining Oliy Sudi va Oliy xo'jalik Sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy Sudi va Oliy xo'jalik Sudi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar sudlari va xo'jalik sudlaridan iborat.

Avvalo, sud hokimiyati nima ekanligi, uning tarixi, kelib chiqishi va hozirgi kunga qadar bo'lgan holati to'g'risida so'z yuritsak.

¹ Karimov I.A. "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", - T.: O'zbekiston, 1992-yil 16- bet



Sud² — (qad.r.sud - ish, hukm) muayyan fuqaroviy (ayrim shaxslar yoki muassasa va tashkilotlar o'rtasidagi, shaxslar bilan muassasa va tashkilotlar o'rtasidagi) nizolarni hal qiluvchi hamda jinoiy ishlarni ko'rib chiquvchi - odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat organi; muayyan davlatning qonunlariga asosan protsessual tartibda jinoiy, fuqarolik, ma'muriy va boshqa toifadagi ishlarni ko'rib chiqadi va hal qiladi. Ayrim shaxslar o'rtasida, ular bilan davlat idoralari, korxona, muassasa, tashkilot ma'muriyati, jamoat birlashmalari o'rtasida mulkiy va nomulkiy nizolarni, qonunbuzarliklarga doir ishlarni ko'rib chiqib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxona, muassasalar, tashkilot huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qiladi. Sud boshqa davlat organlaridan, jamoat birlashmalari va har qanday shaxsdan mustaqil va xolisona faoliyat yuritishi, barcha ishlarni faqat qonunga bo'ysunib ko'rib chiqishi va hal etishi lozim. Sudlar odatiy va favqulodda sudlarga bo'linadi. Favqulodda Sudlarni tashkil etish deyarli barcha zamonaviy konstitutsiyalarda man etilgan. Odatiy Sudlar umumiy vakolatli va ixtisoslashgan, ya'ni harbiy, xo'jalik (arbitraj, savdo), bojxona, soliq (moliyaviy), mehnat nizolari bo'yicha sudlarga bo'linishi mumkin. Sudning alohida turlari konstitutsiyaviy va ma'muriy sudlar hisoblanadi. Ba'zi mamlakatlarda, shuningdek, diniy sudlar (masalan, musulmon mamlakatlari — Eron, Pokiston, Sudan va boshqalarda shariat sudlari) va odatiy huquq sudlari (masalan, tropik Afrika va Okeaniyadagi bir qancha mamlakatlarda qabila sudlari) ham mavjud. Sudlar, shuningdek, instansiyalarga ko'ra: birinchi instansiyasi, apellyasiya, kassatsiya va nazorat sudlari, hududiy darajasi bo'yicha: tuman (shahar), viloyat, okrug va oliy sudga bo'linadi³.

Sudning jamiyatni, davlatni rivojlanishida ahamiyati katta. Avvalo, sudning roli xalqaro huquq normalariga muvofiq, unga davlatlar tomonidan taqdim etilgan huquqiy nizolarni hal qilish va Birlashgan Millatlar Tashkilotining vakolatli organlari va ixtisoslashgan idoralari tomonidan berilgan huquqiy masalalar bo'yicha maslahat xulosalarini berishdan iboratdir. Shuningdek, sud hokimiyati mamlakat qonunlarini sharhlash, himoya qilish, qo'llash va huquqiy nizolarni hal qilish uchun ma'suldir. Sudning asosiy vazifalari fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari, xalqaro shartnomalarida, shuningdek inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda kafolatlangan huquqlari hamda erkinliklarini, davlat va jamoat manfaatlarini, yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Sud hokimiyati aslida, jamiyat uchun, davlat uchun nima beradi.? Avvalo, sud hokimiyati jamiyatning asosiy qadriyatlarini posbonlari sifatida muhim rol o'ynaydi va siyosiy beqarorlik davrida izchillik manbai hisoblanadi. Shuningdek, inqirozlar davrida demokratik me'yorlarning saqlanishini ta'minlaydi.

Yevropalik mashhur huquqshunoslardan biri S.Lens ta'kidlaganidek, "Davlat haqida unda qanday sud qilinishiga qarab baho bergan ma'qulroq" degan fikri juda ham o'rinlidir.⁴ Sud hozirgi O'zbekiston hududida davlatchilikka xos ko'p asrlik tarixga ega. Sud faoliyatini

² E. Begmatov, A. Madvaliyev, N. Mahkamov. O'zbek tilining izohli lug'ati." O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent- 2020.- B.590.

³ "Sud" O'zME. S-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

⁴ V.A.Kostetskiy, E.S. Asadova .Konstitutsiyaviy huquq asoslari, - T,: G'afur G'ulom, 2001- B. 89



qadimdan xalq madaniyati, an'analari va ma'naviy negiziga asoslanib, obro-e'tiborli, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan kishilar amalga oshirishgan. Ular chiqargan qarorlar har qanday shubhadan holi va barcha uchun majburiy hisoblangan. O'zbekistonda qariyb 13 asr davomida shariat qonunlariga amal qilgan qozilik sudi hamda xalq urf-odatlarini va an'analari suyanib qaror qabul qilgan biylar sudi mavjud bo'lgan. O'rta Osiyoni zabt etganidan so'ng mustamlakachi chor hokimiyati Rossiya qonunlariga amal qiluvchi sudlarni tuzdi. 1917-yil oktyabr to'ntarishidan so'ng „xalq“ sudlari va tribunallar ta'sis etildi. Ular kommunistik partiya va inqilob manfaatlariga xizmat qildi, qonunga emas, „proletarcha ong“ga suyanardi. Sud o'rnini ko'p hollarda „maxsus kengash“, „uchlik komissiya“ kabi ma'muriy tuzilmalar egallagandi. Sud adolatga emas, vahshiyona qatag'on, shafqatsiz jazolashga xizmat qildi. Sud batamom partiya va sovet ijroiya organlariga qaram edi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng O'zbekistonda huquqiy davlat barpo etishning tarkibiy vazifasi sifatida sud huquq islohoti o'tkazilmoqda.

Sud hokimiyati – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXII bob, 106-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mamlakatimiz taraqqiyoti, jamiyatimizning rivoji hamda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi ahamiyati beqiyosdir. Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda, jamiyatda qonuniylik va sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyadada O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2- sentyabrda qabul qilingan „Sudlar to'g'risida“gi Qonunining 2-moddasida „Sudyalar mustaqil ekanligi, faqat qonunga bo'ysunishlari, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmasligi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi kabi muhim normalarda mustahkamlab qo'yilgan.“⁵

Sudya – Sud organlarida sudga tushgan ishlarni ko'ruvchi va shu ishlar bo'yicha hukm chiqaruvchi lavozimli shaxs⁶.

Ta'kidlash joizki, sudyalarning mustaqil va faqat qonunga bo'ysungan holda ish yuritishlarining konstitutsiya darajasida kafolatlanishini asosiy sabablaridan biri – sud hokimiyatiga boshqa hech qaysi organ vakolatiga taaluqli bo'lmagan huquq – odil sudlovni amalga oshirish huquqi berilganligi bilan izohlanadi. Xususan, rim olimi Sitseron „Sudyalik kursiga o'tirarkan, halol odam shaxsiy simpatiyalarini unutadi“⁷ degan so'zlari ham yuqoridagi fikrlarni yaqqol isbotlaydi. Zero, mamlakatimiz hayotida, fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini to'liq ta'minlanishiga erishishda odil sudlovning ahamiyati beqiyosdir. Odil sudlov jamiyat hayotida, jamiyat a'zolarini huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirishda, insonlarni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda odil sudlov har qaysi davrlarda ham ulug'langanligi, qadrlanganligini hamda insonlar unga intilib yashaganliklarini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Xususan, rim faylasuflari

⁵ <https://lex.uz/ru/docs/-68425>

⁶ E. Begmatov, A. Madvaliyev, N. Mahkamov. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent- 2020.- B.591.

⁷ Kostetskiy V.A., Asadova E.S. Konstitutsiyaviy huquq asoslari. – T.: G'afur G'ulom, 2001. –B.89.



“mayli dunyo barbod bo’lsin, lekin odil sudlov qaror topsin”⁸ deb ta’kidlaganliklari bejiz emas. Rim faylasuflarining mazkur mumtoz shiorlari bir qarashda mubolag’adan iborat bo’lsa-da, lekin ular odil sudlovga shu qadar yuqori baho beradilar.

Istiqlolning dastlabki yillarida Konstitutsiyada nazarda tutilgan sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo’ysunishi tamoyilini amalga oshirishga qaratilgan qator qonunlarimiz qabul qilindi. 1994-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksi, Jinoyat protsessual Fuqarolik protsessual va Xo’jalik protsessual kodekslarini, “Sudlar to’g’risida”gi qonun, O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining mustaqillikning dastlabki yillarida chiqargan qator farmon va qarorlari va Hukumat qarorlarini keltirish mumkin.

Biroq mamlakatimiz bosib o’tgan taraqqiyot yo’lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon’yukturasi keskin o’zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqarish va ro’yobga chiqarishni taqazo etmoqda edi. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash, aholining odil sudlovga bo’lgan ishonchini oshirishga qaratilgan mutlaqo yangi bosqichni boshlanishini hayotiy zaruratga aylantirdi.

Shuni ta’kidlash kerakki, jamiyatda sud organlarining nufuzini oshirish, sudyalarning chinakam mustaqilligini va faqat qonunlarga asoslanib ish yuritishini ta’minlash mamlakatimiz Konstitutsiyasi va shu asosda qabul qilinayotgan qonunlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini qurishdagi muhim shartlardan biridir.”Advokat ham, ustiga ustak sudya ham o’z majburiyatlarini ijro etayotganda shaxsiy his-tuyg’ularga berilishga haqli emas”⁹ deydi mashhur shotland yozuvchisi R.Stivenson. Darhaqiqat, uning fikrlarida jon bor aslida.

Ma’lumki, o’tish davrida boshqa sohalar qatori, sud sohasida ham islohatlar amalga oshirilgan. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va 1993-yil 2-sentabr Oliy Kengashning XI sessiyasida qabul qilingan “Sudlar to’g’risi”dagi Qonuni (yangi tahrirda 2000-yil 14-dekabr) sud islohatlarining huquqiy asosidir. O’zbekiston Prezidentining farmonlari ham bu sohani isloh qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2005-yil 1-avgustdagi “O’zbekiston Respublikasida o’lim jazosini bekor qilish to’g’risida”gi (2008-yil 1-yanvar – O’zbekiston Respublikasida o’lim jazosi bekor qilindi) hamda 2005-yil 8-avgustdagi “Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o’tkazish to’g’risida”gi farmonlari har bir sudya kadrlarni tayyorlash va yagona sud amaliyotini shakllantirish mexanizmini barpo etish bo’yicha chora-tadbirlar belgilab chiqildi.

Sud tizimiga kirgan barcha sudlar O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasida va “Sudlar to’g’risida”gi Qonunni 1-moddasida ko’rsatilgan. Bunga ko’ra O’zbekiston Respublikasi sud tizimiga besh yil muddatga saylanadigan quyidagi sudlar kiradi:

- O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi;
- O’zbekiston Respublikasining Oliy sudi;
- O’zbekiston Respublikasining Oliy xo’jalik sudi;

⁸ <https://litlife.club/books/263462/read?page=3>

⁹ V.A.Kostetskiy, E.S.Asadova .Konstitutsiyaviy huquq asoslari. - T,: G’afur G’ulom, 2001 - B. 89



- Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi;
- fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari;
- fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari;
- viloyatlar va Toshkent shahrining xo'jalik sudlari;
- harbiy sudlar.

O'zbekiston Respublikasida ishlarning toifalariga qarab sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirilishi mumkin. Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi. Umumiy yurisdiksiya sudlariga quyidagilar kiradi:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi.
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi.
3. Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudi. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudi.
4. Harbiy sudlar.

O'zbekiston Respublikasining Oliy xo'jalik sudi xo'jalik sudlovi doirasining oliy sudlov hokimiyati organidir.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar sud-huquq sohasini demokratlashtirish va erkinlashtirishga, sud hokimiyatining fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini oshirishga zamin yaratdi. Shu bilan birga, mamlakatni rivojlantirishning zamonaviy talablari va strategik ustuvor vazifalari sud-huquq tizimini yanada takomillashtirishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mazkur sohadagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarib, quyidagi uchta asosiy ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi:

- sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash;
- fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish;
- odil sudlovga erishish darajasini oshirish.

Mazkur ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlarining muhim vazifalari etib:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasida belgilangan sudyalarning mustaqilligi, ularning faqat qonunga bo'ysunishi va odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga og'ishmay amal qilinishini ta'minlash;

fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularga tajovuz qilish holatlari yuzasidan barcha zarur choralarni ko'rish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartibini buzish va sansalorlikka yo'l qo'ymaslik;



tegishli axborotni o'z vaqtida jamoatchilikka yetkazish orqali faoliyatning ochiqqligi va shaffofligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda aholi bilan hamkorlik samaradorligini oshirish;

huquqni qo'llash amaliyoti va amaldagi qonunchilikni takomillashtirish orqali tizimli kamchilik va qonunbuzilishlarni aniqlash va bartaraf etish, ish faoliyatiga ilg'or ilmiy-texnika vositalari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish;

idoraviy nazoratni kuchaytirish, xodimlar o'rtasida suiiste'molchilik va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga chek qo'yish, kadrlar tarkibini sifat jihatidan yaxshilash, kadrlarni tanlashning eng munosib nomzodlarni ishga qabul qilishni ta'minlaydigan zamonaviy mexanizmlarini joriy etish belgilandi. Farmonga muvofiq sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, kasbiy nufuzini oshirish, yuqori malakali va samarali faoliyat yurituvchi sud korpusini shakllantirish maqsadida ilk bor sudyalarning vakolat muddatlari qayta ko'rib chiqildi. Mashhur nemis mutafakkiri I.Gyote aytganidek "Jazolashga layoqati bo'lmagan sudya alaloqibat jinoyatchining hamtavog'iga aylanadi"¹⁰ degan so'zlaridan shuni bilish mumkinki, sudyalarning yelkalarida juda ham katta ma'suliyat borligini anglatadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, boshqa sohalar qatori sud hokimiyati ham chuqur isloh qilindi va bu borada izchil ishlar amalga oshirildi. Bu islohatlar o'zining samarali natijasini hozirgi kunga qadar berib kelmoqda. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatni qurish jarayonida davlat hokimiyati organlari ichida sud hokimiyatining o'rni va ahamiyati kattadir. O'tish davrining mashaqqatli bosqichlarida respublika siyosiy hayotini yangilash va demokratlashtirish jarayonida sud hokimiyati o'zining salmoqli hissasini qo'shgan va qo'shib ham kelmoqda.

References:

1. R.Shamsutdinov, X.Mo'minov " O'zbekiston tarixi" "Sharq" nashriyoti. 2013-yil.
2. V.A.Kostetskiy, E.S.Asadova "Konstitutsiyaviy huquq asoslari" "G'afur G'ulom" nashriyoti.2001-yil
3. I.Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" "Toshkent". 1992-yil.

¹⁰ V.A.Kostetskiy,E.S.Asadova . Konstitutsiyaviy huquq asoslari.. - T,: G'afur G'ulom, 2001- B. 89